



# OILA VA XOTIN-QIZLAR DAVLAT QO'MITASI TASHKIL QILINDI

Manba: PF-81-son, 01.03.2022-y, PQ-146-son, 02.03.2022-y.

@huquqiyaxborot

## OILA VA XOTIN-QIZLAR DAVLAT QO'MITASI HAMDA UNING HUDUDIY BO'LINMALARI TASHKIL ETILDI

## 2022-YIL 1-IYULGACHA "MAHALLA TO'G'RSIDA"GI QONUN LOYIHASI ISHLAB CHIQLADI



Qo'mita oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha **vakolatli davlat boshqaruvi organi** hisoblanadi



Oila va xotin-qizlar masalalariga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari Qo'mita bilan **majburiy tartibda** kelishiladi



Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalari negizida tegishincha **Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalari** tashkil etildi



### Bosh prokuraturada

Xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash hamda ularni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohalarida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi tashkil etildi

**2022-yil 1-maydan** mahalladagi xotin-qizlar faolining oylik ish haqi miqdori u birlashtirilgan mahalladagi xonadonlar soniga mutanosib ravishda quyidagicha belgilanadi:



xonadonlar soni 500 tagacha bo'lgan mahallada – MHEKMning 3,5 baravari miqdorida

**2 mln 877 ming so'm**



xonadonlar soni 501 tadan 1 000 tagacha bo'lgan mahallada – MHEKMning 4 baravari miqdorida

**3 mln 288 ming so'm**



xonadonlar soni 1 000 tadan ortiq bo'lgan mahallada – MHEKMning 4,5 baravari miqdorida

**3 mln 699 ming so'm**